

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

MILLIY O`YINLAR ORQALI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH

O`ralov Jasurbek Ravshan o`g`li

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti
sport turlarini o`qitish metodikasi kafedrasи o`qituvchisi
jasurbek.oralov@gmail.com*

Annotatsiya: Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas`uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o`z mas`uliyatini anglashga, ta`lim va tarbiya vazifalarini hal etishga, ijodiy yondashishga, o`z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o`rtoqlarining o`sishiga ko`maklashishga yordam beradi.

Kalit so`zlar: tarbiyachi, tarbiya, milliy o`yinlar, “Quvlashmachoq”, “To`p otish”, “Besh tosh”, “Oq terakmi, ko`k terak”

Tarbiyachi – o`zi yashab turgan o`lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish, ijtimoiy faol bo`lish, umumiy va mакtabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fizioliqiyasini egallashi kerak. Uning pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Respublikamiz rahbariyati o`qituvchilar va tarbiyachilar faoliyatini yuqori baholamoqda. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, o`qituvchilik, tarbiyachilik ishidagi ijodiy mehnatlari, ilg`or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o`qituvchilar va tarbiyachilar qator unvonlar bilan taqdirlanadilar. Ularga respublika miqyosidagi unvonlar beriladi. Jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, bugungi kunda bog`chada, maktabda, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlarida shakllanayotgan yosh avlod ijodiy xulq-atvor normalari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar, malaka va ko`nikmalarni har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi.

Bolalarni yangi o`yin bilan tanishtirish, uning mazmuni va qoidalarini tushuntirish tarbiyachidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Ayrim o`yinlarning mazmunini oldindan bo`ladigan suhabatlar natijasida bolalarning bilimlari oydinlashadi, ularning tasavvurlari aniqlashadi, o`yin obrazlariga nisbatan munosabat tarkib topadi, ijodiy hayol o`sadi. Tarbiyachi o`yin harakati izchilligini tushuntiradi, bolalar va o`yin atributlarining joylashish o`rnini ko`rsatadiva qoidalarni aniqlashtiradi. Harakatli o`yinlarni o`tkazishda bolalarda ijodni shakllantirishning keng imkoniyatlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

yaratiladi, chunki o‘yinlar hech qachon faqat avtomatlashtirilgan harakatlardangina iborat bo‘lmaydi. Ijodiy tashabbus bolalarda kichik maktabgacha yoshda: dastlab ikki yoshda va rivojlangan darjasasi uch yoshda namoyon bo‘ladi.

Eng rivojlangan davlatlar yuksalish arafasida tarbiya masalasini birinchi o‘ringa qo‘yishgan. Ular o‘z yoshlarini ertangi kunning yuksak talablariga puxta tayyorlab kirib borishgan. Chunki, bu raqobatli dunyoda ertaning talablari yangicha, murakkabroq, qiyinroq bo‘lgan.

O‘zlikka sodiqlikda gap ko‘p ekan. Mustabid sho‘rolar davrida ham o‘zbek o‘zining milliy, insonparvar bolalar o‘yinlarini saqlab qoldi. Butun jahon uni o‘rganishga kelmoqda! Bir pedagogaytib bergen misol: yapon pedagoglari 5-7 yoshli bolalarining kompyuter ludomaniyasiga berilib, harakatsizlikdan sog‘liqlarini, ma’naviy tahdidlardan o‘zligini yo‘qotayotganini ko‘rib, chora qidira boshlabdi. Chunki bu – millat kelajagini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Ular, yosh yaponlar avlodni sog‘lig‘ini saqlab qolish davosini qidirib-qidirib ... O‘zbekistondan topishibdi. Shaharu qishloqlarimizni kezib, jizzaxlik, buxorolik, farg‘onalik bolalarimiz “zamonaviy emas”, debo‘ynamay qo‘ygan harakatli o‘yinlarini o‘rganib, to‘plab, olib ketib, o‘zlarining super zamonaviy bolalariga o‘rgatishayotgan ekan. Sababi – zamonaviy bolalar o‘yinlari haddan ortiq texnokratlashib ketgan. Ularda insoniy ruh, joziba, zavq, tuyg‘ular kam. Shuning uchun bolalar harakatli o‘ynlarga qiziqishmayotir. “Insoniy ruh, joziba, zavq, tuyg‘ularning barisi o‘zbek milliy bolalar o‘yinlarida bor”, - debdi, yapon pedagogi Hurmatli ota-onalar, bolalaringizning qanday o‘ynlarga oshno ekanini bilasizmi?

Milliy o‘yinlarimiz – bolalarni hayotga tayyorlovchi benazir mifik. Bolalar 5-7 yoshdan boshlab tengdosh tengqurlari bilan harakatli o‘yinlar o‘ynaydi. O‘yinlar davomida insoniy munosabatlar, atrof-muhit haqida ma’lumot oladi. Munosabatlarning o‘ziga xos “mifik”idan o‘tadi. O‘yin jarayonida ko‘plab ijodiy fazilatlarga ham, salbiy qiliqlarga ham duch keladi. Yomonlikning oqibatlarini ham o‘z darjasasi va davrasida ko‘radi. Intizomlilik, uyushqoqlik, irodalilik, qiyinchiliklarga chidab, yengib o‘tishni, boshlagan ishni oxiriga yetkazishni, maqsadgayetish uchun bor kuchini ishga solishni o‘rganishadi. Bular, bolalarning aqliy, jismoniy, ma’naviy olamini boyitadi. Milliy o‘yinlarimiz ota-bobolarimizni abjis, chidamli, irodali, dovyurak qilib tarbiyalagan. Xullas, o‘yinlar bolalarni katta hayotga tayyorlash, kurashishga, yengishga o‘rgatishning o‘ziga xos mashqlari vazifasini o‘tagan. Demak, milliy o‘yinlar – bolani millat farzandiga aylanishining ajralmas sharti ekan. Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sog‘lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

kelajagimiz bo‘lmish bolalarning ilk yoshlik chog‘idan boshlab, ularning o‘sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug‘unlanish, ta’lim-tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir. Milliy o‘yinlar bolalarning kuch va qobiliyatlarini o‘stiradi, ularni hayotga tayyorlaydi. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari kabi, milliy harakatlari o‘yinlar ham uzoq tarix osha bizgacha yetibkelgan. Milliy o‘yinlar orqali bolaning nutqi o‘sadi, aqliy qobliyati rivojlanadi, jismonan epchil va baquvvat bo‘lib o‘sishi ta’milanadi. O‘zbek milliy o‘yinlari bolalarni iymonli, e’tiqodli, aqliy barkamol, sog‘lom qilib tarbiyalashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz... -T.: Ma’naviyat, 2013. 107-111-b
- 2.Maxmudov O. Farzandnoma. –T.: O‘qituvchi, 2018.
- 3.Tilavov A. Bolalarga gap uqtirish san’ati. –T.: Sano-standart, 2016.
4. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.
- Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "IMPROVING THE FUNCTIONAL SKILLS OF THE BELT WRESTLER." *Open Access Repository* 9.9 (2023): 109-114.
5. Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "DEVELOPING TECHNICAL TRAINING OF WRESTLERS WITH SPECIAL MOVING GAMES." *Open Access Repository* 9.9 (2023): 130-136.
6. Abdukhamedovich, Muydinov Ikboljon, Sarukhanov Arsen Albertovich, and Azizov Mukhammadjon Azamovich. "Physical culture as a motor factor of mental performance of adolescents." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 128-134.
7. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 164-165.
- 8.Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. *Asia pacific journal of marketing & management review* issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(11), 46-49.